



## FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTI TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Toshkent viloyati yuridik  
texnikumi o'quvchisi  
Odilxo'jayeva Dilona Odilxo'ja qizi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada fuqarolik jamiyati instituti tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari hamda *Bugungi kunda mamlakatimiz oldida bajarilishi kerak bo'lgan vazifalar, demokratik huquqiy davlat qurishning eng muhim shartlari bayon etiladi.*

**Kalit so'zlar:** fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat, huquqing ong, normativ-huquqiy hujjatlar, jamoat birlashmalari.

*Bugungi kunda mamlakatimiz oldida bajarilishi kerak bo'lgan vazifalar talaygina. Rivojlangan fuqarolik jamiyatini barpo etish va takomillashtirish masalasi shular jumlasidandir. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" konsepsiyasini izchil davom ettirish eng ustuvor vazifalarimiz qatoriga kiradi.*

*Demokratik huquqiy davlat qurishning eng muhim shartlaridan biri fuqarolik jamiyatini shakllantirish, fuqarolik jamiyati institutlarining erkin va qonuniy asosda faoliyat yuritishini kafolatlash hisoblanadi.*

*Fuqarolik jamiyati qaror topgan davlatlardagina insonga eng oliy qadriyat sifatida qaraladi, davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldida javobgarlik hissi ortadi, fuqarolarda qonunlarga nisbatan hurmat muhiti shakllanadi. Avvalo, shuni qayd etish lozimki, yuridik va ilmiy foydalanilgan adabiyotlarda, shuningdek mamlakatimiz qonunchiligida ham fuqarolik jamiyati, fuqarolik jamiyati institutlari tushunchasi uchun umumiy qabul qilingan ta'rif mavjud emas.*

*Shunday bo'lsada, ko'plab huquqshunos olimlarning asarlarida va ilmiy tadqiqot ishlarida yuqoridagi tushunchalarga ta'rif berishga harakat qilingan. Jumladan, huquqshunos olim Odilqoriyevga ko'ra, fuqarolik jamiyati – har bir inson manfaatini ustuvor biluvchi, huquqiy an'ana va qonunlarga hurmat muhiti shakllantirilgan, umuminsoniy qadriyatlar e'zozlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari so'zsiz ta'minlanadigan, davlat hokimiyatining samarali jamoatchilik nazorati mexanizmlari vujudga keltirilgan, insoniy munosabatlar chuqur ma'naviy - madaniy qadriyatlarga tayanadigan erkin demokratik huquqiy jamiyat[1].*

*Gegel tomonidan fuqarolik jamiyati tushunchasi quyidagicha talqin etilgan: fuqarolik jamiyatining tabiati shundayki, unda har bir alohida insonning huquqi davlatning shaxsiy huquqiga aylanishga ulgurgan bo'lib, unda davlat o'zining zimmasiga mening huquqlarimni xuddi o'zining huquqlaridek himoya qilish va qaror toptirish majburiyatini oladi[2].*

*Maykl Volzer fuqarolik jamiyati bilan demokratiyaning o'zaro aloqadorligini quyidagicha ifodalagan edi: "Faqat demokratik davlatgina fuqarolik jamiyatini tuzishga qodirdir; faqat demokratik fuqarolik jamiyatigina demokratik davlatni tuzishga qodirdir.*



*Siyosatda demokratiyani ta'minlaydigan fuqaroviyligina hamkorlikda faoliyat yuritishni o'zlashtirishi mumkin, umuman shunday faoliyat uchun zarur bo'lgan imkoniyatlarni teng va tekis taqsimlash demokratik davlat tomonidan amalga oshirilishi zarur"[3].*

*Fuqarolik jamiyati tushunchasi yuqorida ko'rganimizdek olimlar tomonidan turlicha talqin etilgan. Fuqarolik jamiyatini to'la qaror toptirishda fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni juda muhim. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, fuqarolik jamiyati kabi fuqarolik jamiyati institutlari uchun ham yaxlit va yakdil fikr mavjud emas. Amaldagi qonun hujjatlarimizda ham fuqarolik jamiyati institutlarini mazmunini o'zida ifodalovchi definitiv (ta'rif) normalaryo'q. Shunga qaramay qonun hujjatlarda fuqarolik jamiyati institutlari jumlasini qo'llanilib kelinmoqda.*

Xususan, qator prezident farmon va qarorlarida: Mamlakatimizda demokratik islohotlarniyanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirish sohasini amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida F-3562-son prezident farmoyishi, Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga ko'maklashish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida PQ-2085-son prezident qarori va boshqa hujjatlarda fuqarolik jamiyati institutlari jumlasini ishlatilgan. Lekin ushbu qonun hujjatlarida ham na fuqarolik jamiyati, na fuqarolik jamiyati institutlarining ma'nosi ochib berilmagan. Shuningdek, qonunchiligimizda aynan "fuqarolik jamiyati institutlari" bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni tartibga soluvchi umumiy qonun hujjati mavjud emas, balki fuqarolik jamiyati institutlarining alohida turlarini tartibga soluvchi normativ hujjatlar mavjud. Mazkur hujjatlarga: O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi, "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi, "Jamoat fondlari to'g'risida"gi, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi, "Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi, "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi, "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi, "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi, "Xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari to'g'risida"gi qonunlarni misol keltirish mumkin. Fuqarolik jamiyati institutlari-jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarni himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishish, ma'naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya faoliyatini amalga oshirish hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarga tashkil etiladigan, nodavlat notijorat tashkilotlari sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan yuridik shaxslar, ularning birlashmalari hamda nodavlat ommaviy axborot vositalari. Fuqarolik jamiyati institutlari aynan fuqarolik jamiyatining mohiyatini va uning mavjudligini namoyon etadigan, jamiyat shakllanishi va rivojlanishi uchun o'z hissasini qo'shadigan demokratik institutlardir[4]. Fuqarolik jamiyati institutlarini turli mezonlar bo'yicha guruhlarga ajratish, tasniflash mumkin. Jumladan, Sh. Nazarov tomonidan fuqarolik jamiyati institutlari quyidagicha tasniflangan:

1. Iqtisodiy sohadagi manfaatlarni qanoatlantiruvchi tuzilmalar: xususiy mulk asosida vujudga keladigan va faoliyat yuritadigan nodavlat tashkilotlar; ijara asosida ishlovchi



jamoalar; hissadorlik jamiyatlari; moliyaviy jamg'arma hamda uyushmalar; ishlab chiqarish korporatsiya, konsernlari va birlashmalari; tadbirkorlar uyushmalari (palatasi) va boshqalar.

2. Ijtimoiy sohadagi manfaatlarni ifodalovchi tuzilmalar: oila hamda uning manfaatlarini aks ettiruvchi maxsus tashkilotlar; ta'lim-tarbiya muassasalari (maktab, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalari); jamoat birlashmalari, nodavlat tashkilotlar; fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari; mustaqil OAV; diniy tashkilotlar; milliy-madaniy markazlar; ixtiyoriy ko'ngilli jamiyatlar; jamoatchilik fikrini aniqlash va o'rganish institutlari; turli ijtimoiy ixtiloflarni adolatli hal etuvchi tuzilmalar va boshqalar.

3. Siyosiy sohadagi manfaatlarni aks ettiruvchi institutlar va tuzilmalar: siyosiy partiyalar; ijtimoiy-siyosiy harakatlar; siyosiy muxolifatning mavjudligi; inson huquqlarini himoyalovchi institutlar va boshqalar[5].

Fuqarolik jamiyati institutlarining mamlakat hayotidagi o'rni va ahamiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi: aholini turli ijtimoiy guruhlarni manfaatlarini ifoda etadi;

- fuqarolar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlashda, ularning siyosiy va fuqarolik faolligini oshirishda, mamlakatda ro'y berayotgan demokratik o'zgarishlarning ko'lamini kengaytirish va chuqurlashtirishda muhim omil sanaldi;

- ular davlat va hokimiyat tuzilmalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini olib borishning asosiy vositasi hisoblanadi;

- milliy o'zlikni anglashda, jamiyat a'zolarining siyosiy-huquqiy madaniyati va milliy dunyoqarashini yuksaltirishda, milliy g'oya va milliy istiqloq mafkurasini joriy etishda ularning imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi;

- butun jamiyat ahamiyatiga molik masalalarni hayotga tadbiiq etishda ular davlatning teng huquqli ijtimoiy hamkori hisoblanadi;

- nodavlat notijorat tshkilotlarning rivojlangan tizimi jamiyatda manfaatlar uyg'unligini qaror toptiradi va mustahkamlaydi[6].

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurish yo'lida fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish va rivojlantirishimiz, fuqarolik jamiyatiga oid qonunchilikdagi kamchiliklarni bartaraf etishimiz va qonun hujjatlarini takomillashtirishimiz zarur. Jumladan, mavjud qonunlarda "fuqarolik jamiyati" va "fuqarolik jamiyati institutlari" tushunchalarining aniq ta'rifini berish,

fuqarolik jamiyati institutlari uchun umumiy bo'lgan kodeks yoki qonun qabul qilish bu borada umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalari, ilg'or xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Odilqoriyev X. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. 172 b.
2. Gegel G. Filofofiya prava. Moskva, «Mysl», 1990 – S. 43.



3. Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati: Siyosiy partiyalar, mafkuralar, madaniyatlar. – T.: "Sharq", 1998. - 11b.

4. Yakubov Sh. Davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligining huquqiy mexanizmlari / Monografiya. – T.: «LESSON PRESS» nashriyoti, 2018 12-16 b.

5. Nazarov Sh. Civil society and its structural institutions priorities of teaching and scientific methodology. insciene.uz.

6. Saburov N., Saydullaev Sh. Davlat va huquq nazariyasi / O'quv qo'llanma. Toshkent: TDYuI, 2011. – 170 b.